

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“TARMOQLAR IQTISODIYOTI”
KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 337:641.33.1(575)

TURDIYEV MUXRIDIN ABDUG'ANI O'G'LI

DAVLAT XARIDLARI BOZORIDA RAQOBAT MUXITINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

70310102-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
dots. I.Xotamov


Toshkent – 2023

Magistrilil dissertatsiya ishi "Tarmoqlar iqtisodiyiti" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

56 -sonli bayonnoma «3» may 2023 y.

Ilmiy rahbar:

dots. I.Xotamov



imzo

sana

Magistr:

M.Turdiyev




imzo

sana

Dissertatsiya ishi Iqtisodiyot fakultetida 2023 yil "18" 05
№ 2/12 raqami bilan ro'yxatga olingan

"Himoyaga ruxsat etiladi"

"Tarmoqlar iqtisodiyoti" kafedrası
mudiri dots. I.Xotamov



"3" "05" 2023 yil

Himoya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida
2023 yil "19" 05 soat "10⁰⁰" da bo'ladi.

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertatsiyasida davlat xaridlari bozorining mohiyati va unda raqobat muxitini rivojlantirishga oid ilmiy-nazariy qarashlar hamda mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi keltirilgan. Davlat xaridlarining asosiy tamoyillari va mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati chuqur o'rganilgan. Shuningdek, davlat xaridlari bozorining hozirgi holati va raqobat muhitiga ta'sir etuvchi omillar, respublikada davlat xaridlari bozorining rivojlanishi dinamikasi va raqobat muhiti tahlil qilinib, davlat xaridlari bozorida raqobat muxitini yanada rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari bozori, raqobat, raqobat shakllari, electron savdo, davlat buyurtmasi, raqamlashtirish, iqtisodiyot.

ANNOTATION

In this master's thesis, the essence of the state procurement market and scientific-theoretical views on the development of the competitive environment in it, as well as an overview of local regulatory and legal documents are presented. The main principles of public procurement and their importance in the country's economy are studied in depth. In addition, the current state of the state procurement market and the factors affecting the competitive environment, the dynamics of the development of the state procurement market in the republic and the competitive environment were analyzed, and suggestions and recommendations were developed for the further development of the competitive environment in the state procurement market.

Key words: public procurement market, competition, forms of competition, e-commerce, government order, digitization, economy.

MUNDARIJA

Annotatsiya	3
Mundarija	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati	7
Keltirilgan qisqartmalar	8
KIRISH	9
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi	9
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari	11
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari	11
Tadqiqotning ob'yekti va predmeti	12
Tadqiqotning ilmiy yangiligi	12
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi	13
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI	14
1.1. Kirish	14
1.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	14
1.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	21
1.4. Xulosa	23
II BOB. METODOLOGIYA	25
2.1. Tadqiqot dizayni	25
2.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	25
2.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	26
2.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	26
2.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	27
2.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	28
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR	28
3.1. Davlat xaridlarining iqtisodiy mazmuni, asosiy tamoyillari va mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati	43
3.2. Davlat xaridlari bozorining hozirgi holati va raqobat muhitiga ta'sir etuvchi omillar tahlili. Respublikada davlat xaridlari bozorining rivojlanishi dinamikasi va raqobat muhiti tahlili	64
3.4. Tahlillardan olingan natijalar sharhi	65
XULOSA	65
Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	65
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	70
Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	72

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarda davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017- 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning 1.2 – "Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish" bandida: iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari ko'rsatishning samarasi, sifatini yuksaltirish va bu xizmatdan aholi hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanish imkoniyatini oshirish masalalarini amalga oshirish belgilab berilgan¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat kompaniyalarini transformasiya qilishni jadallashtirish kerak. Hozirgi vaqtda davlat ishtirokidagi korxonalarining aksariyati moliyaviy barqaror bo'lmagani uchun davlatga og'ir yuk bo'lib qolmoqda. Shuning uchun joriy yildan barcha davlat korxonalarini isloh qilish dasturi amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, davlat ulushi bo'lgan korxonalar soni kelgusi ikki yilda kamida 3 barobar qisqartiriladi.

Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Bugungi kunda mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri davlat xaridlarini boshqarish hisoblanadi. Hukumat tomonidan xarid jarayonlarini shaffofligini ta'minlashga qaratilgan, jumladan, xaridni amalga oshirishda tender jarayonlaridan kengrok foydalanish yunalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul kilinmoqda. Jumladan, davlat xaridlarini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 29.12.2020 й. <https://president.uz/uz/lists/view/4056>